

5-Sinf Tarixdan Hikoyalar Fanini O'Rganishning Dolzarbligi Va Ahamiyati

Kodirova Nigora Shaydullaevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada 5-sinflar uchun tarixdan hikoyalar fanini o`qitishda ilmiy-metodologik jihatlarning ahamiyati, fanni o`qitish dolzarbligi hamda zaruriyati kabi masalalar muhokama etiladi. Maqolada tarix fanini o`qitishning tarixiy negizlari, shuningdek zamonaviy ta`lim muhitida darslarni olib borish metodologiyasi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Maktab, tarix, metod, o`qitish, texnologiya, ta`lim, dars.

Value And Importance Of Studying The Science Of Stories From Class 5 History

Kodirova Nigora Shaydullaevna

Independent researcher of Tashkent State University named after Nizami

Abstract

This article discusses issues such as the importance of scientific-methodological aspects, the relevance and necessity of teaching the subject in the teaching of stories from history for the 5th grade. The article analyzes the historical foundations of teaching history, as well as the methodology of conducting lessons in a modern educational environment.

Key words: School, history, method, teaching, technology, education, lesson.

Ценность И Важность Изучения Науки Историй Из 5 Класса Истории

Кодирова Нигора Шайдуллаевна

Независимый научный сотрудник Ташкентского государственного университета имени Низами

Аннотация

В данной статье рассматриваются такие вопросы, как значимость научно-методического аспекта, актуальность и необходимость преподавания предмета при преподавании рассказов из истории для 5 класса. В статье анализируются исторические основы преподавания истории, а также методика проведения уроков в современной образовательной среде.

Ключевые слова: Школа, история, методика, преподавание, технология, воспитание, урок.

KIRISH

Bilimdon, ma'rifatli va yuksak ma'nnaviyatli, o'z xalqi va yurtiga sodiq yosh avlodni tarbiyalashda tarix fani muhim o'rinn egallaydi. Shuning uchun hamma zamonlarda atoqli



yozuvchi va mutafakkirlar, davlat va jamoat arboblari insoniyat tarixini o‘rganish zarurligini ta’kidlaganlar. Jumladan, buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy insonlarning ma’naviy kamolotga yetishida tarixiy bilimlarning ahamiyati katta ekanligini anglagan holda, odamlarni o‘tmishni o‘rganishga da’vat etgan [6].

Yosh avlodga bilim beradigan, unga turli fanlar, shu jumladan, tarix ilmini o‘rgatadigan asosiy maskan — bu, maktabdir. Ammo asrlar mobaynida O‘rta Osiyoda eski maktablarda (va hatto madrasalarda ham) tolbi ilmlarga tarix fani o‘rgatilmagan. Bunga asosiy sabab, eski maktab va madrasalar asosan konfessial, ya’ni diniy ta’lim muassasalari bo‘lganligi bois ularning dasturiga tarix fani kiritilmaganligi edi. Xo’sh, unda tarix ixlosmandlari bu fanni qanday o‘rganganlar, degan savol tug‘iladi. Bu savolga qo‘yidagicha javob berish mumkin: tarixni sevgan, uni ardoqlagan tolbi ilmlar o‘tmishni mustaqil tarzda yoki Sharqda keng tarqalgan “ustoz-shogird” an’anasi asosida o‘qib-o‘rganganlar.


ADABIYOTLAR SHARHI

Urushdan keyingi yillarda olimlar ilk marotaba “O‘zbekiston xalqlari tarixi” deb nomlangan ikki jiddlik fundamental asar yaratdilar. Garchi bu asar darslik kitob bo‘lmasa-da, talabalar va maktab o‘qituvchilari undan unumli foydalandilar. 60–70-yillarda umumiy tarix va SSSR tarixi bo‘yicha Moskvada rus tilida tayyorlangan darsliklar tez orada o‘zbekchaga tarjima qilinib, kitob magazinlari va maktab kutubxonalariga tarqatilar edi. Shuning uchun darslik bilan ta’minlanganlik masalasida deyarli muammo bo‘lмаган. Ammo bu kitoblar boshidan oxirigacha kommunistik g‘oya bilan sug‘orilganligi bois amalda o‘quvchilarda o‘tmish haqida soxta tasavvurlar shakllantirar edi. Yana bir muhim muammo — tarix darslarini o‘tishda O‘zbekiston tarixiga yetarli e’tibor berilmaganligi bo‘ldi. Masalan, O‘zbekiston tarixi uchun o‘rta umumta’lim maktablarida atigi 52 soat vaqt ajratilgan edi” [4]. Yoshlar ongiga yagona Vatan (ya’ni — SSSR) tuyg‘usini singdirish maqsadida darslarda asosan Rossiya tarixi o‘rgatilar, milliy respublikalar, shu jumladan, O‘zbekiston tarixidan esa faqat ayrim episodlar eslab o‘tilar edi, xolos.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ta’lim sohasidagi muammolarni yechish maqsadida 80-yillarda navbatdagi “islohot” boshlandi, lekin bu gal ham ish oxiriga yetkazilmadi. Natijada maktablarda vaziyat ijobiy tomonga o‘zgarmadi, tarix fanini o‘qitish borasida katta ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmadni. Shuning uchun O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim tizimini isloh qilish davlat oldida turgan asosiy masalalardan biri edi.

Umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitish borasida to‘planib qolgan muammolar milliy istiqlol davrida asta-sekinlik bilan o‘z yechimini topib bordi. O‘zbekiston Respublikasida 1992 va 1997 yillarda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlarga binoan Maktab ta’limini rivojlantirish umummiliy dasturi ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitish borasida ham talay yangiliklar ro‘y berdi. Avvalambor, “SSSR tarixi” degan predmet maktab o‘quv rejasidan olib tashlandi, uning o‘rniga O‘zbekiston tarixi fani joriy etildi. Rossiya Federatsiyasi va boshqa sobiq ittifoqdosh respublikalar tarixi jahon tarixi fani doirasida o‘rganiladigan bo‘ldi. V sinfda o‘quvchilarda o‘tmish haqida umumiy tushunchalar hosil qilish maqsadida “Tarixdan hikoyalar” (68 soat) fani o‘tila boshlandi. VI sinfda 68 soat hajmda qadimgi dunyo tarixi va O‘zbekistonning eng qadimgi davrdan to milodiy V asrgacha bo‘lgan tarixi o‘rgatilgan. VII, VIII va IX sinf o‘quvchilariga parallel tarzda O‘zbekiston tarixi (68 soatdan) va jahon tarixi (34 soatdan) fanlarini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. VII, VIII va IX sinflarda O‘zbekiston tarixi va jahon tarixining V asrdan to 1918 yilgacha bo‘lgan davri (uchala sinfda ularning har biri 51 soatdan) o‘tilmoqda. X va XI sinf o‘quvchilari esa O‘zbekiston tarixi va jahon tarixining 1918 yildan to hozirgi kunga qadar bo‘lgan davrini (har ikki sinfda har bir fanni 34 soat hajmda) o‘rganmoqdalar. O‘zbekiston va jahon tarixi bo‘yicha kommunistik mafkuradan xoli bo‘lgan yangi davlat



ta'lism standartlari va o'quv dasturlari ishlab chiqildi, yangi darslik kitoblar nashr etildi va maktab kutubxonalariga yetkazib berildi. Tarix kabinetlari yangi uskunalar va zamonaviy axborot vositalari bilan jihozlandi. Bularning barchasi o'rta umumta'lism maktablarida tarix fanini o'qitishni tubdan yaxshilash imkoniyatini berdi.

Umuman olib qaraqanda, umumta'lism maktablarida "Tarix" fanini o'qitishning maqsad vazifalari quyidagilardir:

-o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash;

-hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o'rgatish;

-dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olish ko'nikmalarini shakllantirish;

-ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish;

-loqaydlik, huquqbazarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlaridan saqlash imkonini yaratish;

-hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantirish;

-oila-jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish va hokazolar.

Mamlakatimizda ta'lism sohasiga doir davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoatchilik birlashmalari, davlat va xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi ta'minlanishi belgilangan.

Umumta'lism maktablarida tarix fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchilarining mustaqil ishlashiga qaratilgan. Jumladan, umumta'lism maktablarining boshlang'ich 5-sinifidan o'qitilishi boshlangan tarix fani darsliklarda quyidagicha tarifланади. 2020 yilda U. Jo'rayev, Q. Usmonov,


A. Nurqulov, G. Jo'rayevalar mas'ul muharrirrigida 5 – siniflar uchun yozilgan "Tatix" kitobi "TARIXDAN HIKOYALAR" deb nomlanib [5], 52 ta mavzudan iborat. Ushbu darslikning I-Bobi "Tarix fani nimani o'rghanadi?" deb nomlanib, mazkur bobda asosiy e'tibor tarixiy manbalar, kalendarlar tarixidan, tarixda yil hisobi, dunyo xaritasi tarixi kabi bolalar uchun yangilik bo'lgan tarix fani haqida ma'lumot beradi va fanni o'zlashtirishga oid bo'lgan boshlang'ich tavsiyalar berilgan. Ushbu tavsiyalar o'quvchilarga tushinarli hamda qiziqarli bo'lishligi uchun, ko'proq rasimlar animatsiyalar singari ko'rgazmali dasturlardan iborat.

Umumta'lism maktablarining 5-sinf o'quvchilariga o'qitilayotgan tarix fanida asosan vatanimiz va dunyo tarixi haqida hikoya qilib o'quvchilarda uzoq o'tmish va yaqin tarixi bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Binobarin, tarix fani darsliklarida qayd etilgan, mavzularda asosiy e'tibor o'quvchilarini ma'nab kamolotga erishishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda internet tarmoqlarining jadal suratlarda rivojlanib borishi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda uyali aloqa vositalarining jadal suratlar bilan takomillashib, rivojlanib borishi o'quvchi yoshlarning ongu-shuriga o'zining ijobiy ta'siridan ko'ra salbiy ta'sirini ko'proq ko'rsatayotganligi ta'lism berish bilan bir qatorda tarbiyani ham olib borishlikni taqozo etmoqda.

Tarix har qanday jamiyat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining Tarix fani bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat va jamiyat inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'nnaviy boyliklar ishlab chiqarish, to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning



uchun yoshlar moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali ko’rsatadigan tarix institutlar tizimiga ega bo’lishi lozim.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda tashqi ta’sirlarning yoshlar tarbiyasiga o‘zining ijobiy tasiri bilan bir qatorda, sa’lbiy ta’sirining ortib borishiga olib kelmoqda. Ommaviy madaniyatning yoshlar tarbiyasiga ta’sirining sa’lbiy jihatlarini oldini olishda, yoshlarda o‘zaro mehr oqibat va odob ahloqni rivojlantirishda tarix fanining o‘rnini beqiyos ahamiyatga ega. Shunday ekan, bugun umumta’lim mакtablarda o‘quvchi yoshlarga tarix fanini o’qitishni rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining tarix fani xaqidagi qarashlari va g‘oyalarini ilgari surish zaruratga aylanmoqda.

Binobarin, inson kamolotida tarix fanini o‘rta maktablarda o‘rgatishda Sharq uyg‘onish davri alomalari va olimlarining tarix haqidagi fikr va muloxazalaridan foydalaniб o‘rgatib borilsa, yoshlar ta’lim va tarbiyasiga ta’sir etayotgan ommaviy madaniyatning axloqsizliklarga yo‘g‘irilgan ta’siridan saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Rajabov Q., Zamonov A. O’zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). – T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
2. O’zbekistonning yangi tarixi. Ikkinci kitob: O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2020
3. O’zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Ikkinci kitob. – T.: O’zbekiston, 2019.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). Uchinchi kitob / To’ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. – T.: Sharq, 2010.
5. U. Jo‘rayev, Q. Usmonov, A. Nurqulov, G. Jo‘rayevalar mas’ul muharrirligida 5 – siniflar uchun yozilgan “TARIXDAN HIKOYALAR”. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. Toshkent: 2020
6. Yusufaliyev O.O. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mezonlari.// Academic Research in educatinol skiences. Scientific Journol Impakt Faktor (SJIE) 2021: 5,723. DOI:10,24411/ 2181-1385-2021-01132.
7. www.ziyonet.uz
8. www.natlib.uz